



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 28-avgust, № 177 (9348)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!

AMERIKADAGI VATANDOSHLARDAN PREZIDENTIMIZGA MAKTUB:

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA O'Z MUNOSIB HISSAMIZNI QO'SHAMIZ

Vatanimiz Mustaqilligining 35 yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga AQSh va Kanadada yashayotgan vatandoshlarimizdan maktub keldi.

Davlatimiz rahbariga yo'llangan ushbu murojaat “Vatan Global Alliance” jamiyati raisi Ozod Soliyev, O'zbekiston xalq artistlari – Ezro Malakov va Muhabbat Shamayeva, Filadelfiyadagi “Vatan” jamiyati raisi Sadullo Ahmedov, Nyu-Yorkdagi “Vatan” jamiyati raisi Baxtiyor Qodirov hamda Amerikada yashab turgan 500 nafar vatandoshimiz tomonidan imzolangan. Quyida murojaat matni to'liq holda havola etiladi.

“Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Biz, Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanadada yashayotgan vatandoshlaringiz, Sizga chuqur hurmat va samimiy minnatdorigimizni izhor etib, ushbu Murojaatni yo'llamoqdamiz.

Yaqinda Filadelfiya va Nyu-York shaharlarida “MILLAT SHAVKATI” kitobining taqdimot marosimlari bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirlar biz uchun okean ortida yashab, qalban Vatan bilan hamnafas bo'lgan vatandoshlarni bir maqsad va bir tuyg'u atrofida jamlagan muhim ma'naviy voqeaga aylandi.

“MILLAT SHAVKATI” kitobida tasvirlangan Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, xalq farovonligi va mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi keng ko'lami islohotlar, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro maydonda tobora yuksalib borayotgan nufuzi haqidagi fikrlar vatandoshlarimizda katta qiziqish va mamnuniyat uyg'otdi.

Taqdimotlar davomida bildirilgan samimiy fikrlar, Vatanimizda kechayotgan o'zgarishlarga bo'lgan yuksak qiziqish va vatandoshlarimiz qalbidagi faxr tuyg'usi bizga yana bir haqiqatni ko'rsatdi: okeanlar va minglab chaqirim masofalar bizni Vatandan ajrata olmaydi. Qayerda yashamaylik, barchamizni birlashtirib turadigan yagona va aziz Vatan – O'zbekistondir!

Muhtaram Prezident!
Sizning rahbarligingizda bugun mamlakatimiz o'z so'zi, qat'iy pozitsiyasi, ochiq siyosati va aniq taraqqiyot maqsadlariga ega bo'lgan davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab bormoqda. Biz, xorijda yashayotgan vatandoshlar, bu o'zgarishlarni, ayniqsa, yaqqol his qilmoqdamiz.

Bir vaqtlar chet ellarda, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanadada istiqomat qilayotgan vatandoshlar uchun Vatanga borish, o'z yaqinlari bilan diydorlashish, O'zbekiston

bilan erkin va yaqin munosabat o'rnatish turli qiyinchiliklar bilan bog'liq edi. Bugun esa vaziyat tubdan o'zgardi. Siz boshlab bergan ochiqlik va xalqparvarlik siyosati tufayli xorijdagi vatandoshlarga bo'lgan munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. Ular bilan muloqot qilish, ularni eshitish, Vatan bilan aloqalarini mustahkamlash va ularning bilim, tajriba hamda imkoniyatlarini O'zbekiston taraqqiyotiga jalb etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilayotgani bizga alohida g'urur va mamnuniyat bag'ishlamoqda.

Sizning AQSh Prezidenti Donald Tramp bilan olib borayotgan bevosita va ishonchli muloqotingiz, oliy darajadagi uchrashuv va telefon suhbatlari, shuningdek, AQSh hukumati, Kongressi va ishbiarmon doiralari bilan kengayib borayotgan hamkorlik O'zbekistonga nisbatan Amerikadagi e'tiborning tobora oshishiga xizmat qilmoqda.

Bugun ikki davlat o'rtasida siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarida yangi imkoniyatlar ochilayotganini ko'rib turibmiz.

Muhtaram Prezident!

Siz olib borayotgan siyosat bizga nafaqat yangi imkoniyatlar yaratmoqda, balki zimmamizga katta mas'uliyat ham yuklamoqda.

Biz xorijda yashab, O'zbekistondagi jarayonlarni faqat kuzatib turuvchi insonlar bo'lib qolmasligimiz kerak. Biz hozir yashab turgan mamlakatlarda O'zbekistonning munosib vakillari bo'lishimiz, Vatanimizning haqiqiy qiyofasini keng jamoatchilikka yetkazishimiz, uning manfaatlarini qo'llab-quvvatlashimiz hamda O'zbekiston bilan dunyo mamlakatlari

o'rtasida yangi do'stlik va hamkorlik ko'priklarini qurishimiz zarur.

“Vatan Global Alliance” jamiyati Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanadada yashayotgan vatandoshlarimizni birlashtirish, ularning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini umumiy ezuq maqsadlar atrofida jipslashtirish hamda O'zbekiston bilan aloqalarini yanada mustahkamlash yo'lida faoliyat olib bormoqda.

Biz AQSh Kongressi a'zolari, jumladan, kongressmenlar – Brayan Fitspatrik, Brendon Boyl, shuningdek, shtat va shaharlar darajasidagi davlat va jamoat arboblari, gubernatorlar va merlar idoralari, ishbiarmon doiralari hamda turli millat va jamoalar vakillari bilan aloqalarni kengaytirishga harakat qilmoqdamiz.

Biz Amerika, Kanada va boshqa davlatlarda O'zbekiston haqida yanada ko'proq gapirishini istaymiz.

O'zbekistonning boy tarixi va madaniyatini, xalqimizning qadriyatlarini, bugungi taraqqiyoti va ulkan iqtisodiy imkoniyatlarini dunyo jamoatchiligiga yanada kengroq tanitishni istaymiz.

Biz amerikalik tadbirkor va investorlarni O'zbekistonga jalb qilish, yangi texnologiyalar, bilim va tajribalarni Vatanimizga olib borish, ta'lim va madaniy aloqalarni kuchaytirish, ayniqsa, xorijda ulg'ayayotgan yosh avlodni ona Vatan bilan mustahkam bog'lashni o'zimizning muhim vazifalarimizdan deb bilamiz.

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

“MILLAT SHAVKATI” kitobining Amerikadagi taqdimotlari yana bir muhim haqiqatni namoyon qildi: bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va erishilayotgan yutuqlar okean ortida yashayotgan yuz minglab vatandoshlarimiz qalbidagi ham aks sado bermoqda.

Vatanning obro'si – bizning obro'yimiz.

O'zbekistonning yutug'i – bizning yutug'imiz. O'zbekiston bayrog'ining dunyo maydonida baland ko'tarilishi – har bir vatandoshimiz uchun faxr va iftixordir.

Shu sababli ushbu murojaat orqali Sizga nafaqat minnatdorigimizni bildirmoqchimiz, balki bir muhim fikrni ham yetkazmoqchimiz:

Biz Vatanimiz bilan birgamiz.

Biz qo'limizdan kelguncha Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga o'z munosib hissamizni qo'shamiz.

Biz O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlari yanada mustahkamlashga xizmat qilishga tayyormiz.

Biz o'z bilimimiz, tajribamiz, imkoniyatlarimiz, aloqalarimiz va salohiyatimizni O'zbekistonimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida safarbar etamiz.

Sizning Yangi O'zbekistonni yanada kuchli, farovon, ochiq va dunyoda munosib o'rin egallagan davlatga aylantirish yo'lidagi sa'y-harakatlaringizni yuksak qadrlaymiz va qo'llab-quvvatlaymiz.

Sizga mustahkam sog'liq, kuch-g'ayrat, oilaviy xotirjamlik hamda xalqimiz va Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Shu fursatdan foydalanib, Sizni va Siz orqali butun O'zbekiston xalqini Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan chin qalbmizdan muborakbod etamiz. Mustaqillik – xalqimizning eng ulug' ne'mati, milliy g'ururimiz va kelajagimiz poydevoridir. Bugun Yangi O'zbekistonning jahon maydonida tobora yuksalib borayotgan obro'-e'tibori, xalqimiz hayotidagi ulkan o'zgarishlar va ertangi kunga bo'lgan ishonch mustaqilligimizning naqadar buyuk qadriyat ekanini yana bir bor namoyon etmoqda. 35 yillik qutlug' sana barcha yurtdoshlarimizga, shu jumladan, dunyoning turli burchaklarida yashayotgan vatandoshlarimizga muborak bo'lsin!

Vatanimiz tinch, xalqimiz farovon, mustaqilligimiz abadiy va O'zbekistonimizning dunyodagi mavqei yanada yuksak bo'lsin!"

O'zA.

Hurriyat haqiqatlari

Samarqand 2001 – 2003:

MUSTAQILLIKKA ISHONCH UYG'OTGAN YILLAR

Istiqlolimizning
35 yoshi arafasidagi o'ylar

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga rahbar bo'lgan davr ko'z oldimdan bir-bir o'tyapti. Og'ir zamonlar edi. Viloyat hokimi bo'lish boshni balolarga solish bilan barobar edi. Ayniqsa, Samarqand viloyatini boshqarish hamma zamonlarda o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshiliklardan iborat bo'lgan. Shunday og'ir paytlarda Shavkat Mirziyoyev Samarqandga o'zi bilan birga qat'iy siyosiy iroda, kuchli boshqaruv, mas'uliyat, ishonch va umid, mehr hamda oqibatni olib keldi.

Mustaqillikka 10-yil bo'lishiga qaramasdan ahvol o'ta nochor, aholi turmush darajasi past, iqtisodiyot falaj edi. Lo'nda qilib aytganda, mamlakat ham, aholi ham boshi berk ko'chaga kirib qolgandi. Oqibatda odamlarda ertangi kunga ishonch so'ngan, umid o'lgandi. Birovlar hatto eski davrni qo'msay boshlagandi. “Mustaqillik” degan muqaddas so'zga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lgandi.

Tasavvur qilib ko'ring, mustaqillik degan nihol ekilganiga 10-yil bo'lsa-da, na meva, na soya bersa. Lekin odamlardan mehnat talab qilinardi. Mehnatning ortidan esa hech narsa kelmasdi.

O'zbekiston Qahramoni, marhum Hasan Normurodov Samarqand davlat universiteti talabalari bilan uchrashuvda quyidagilarni aytgan edi:
– Shavkat Mirziyoyev Samarqandga rahbar bo'lib kelgan yillarda mamlakat miqyosida yomon bir tendensiya mavjud edi. Bu ma'lum bir davrlarda biror-bir sohani boshqargan, mehnati siggan sobiq rahbarlarni jamiyattan uzog'lashtirishdir. Buning natijasida qanchadan-qancha tajribali, bilimli, mahoratli insonlar chetga chiqib qolgandi.



Aks sado

INSONPARVARLIK VA QONUN USTUVORLIGI UYG'UNLIGI

Mustaqillik nafaqat davlat suvereniteti timsoli, balki u insonning qadri, huquq va erkinliklari oliy mezoniga aylangan hayot tarzini ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligi arafasida Prezidentimiz tomonidan jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 852 nafar shaxsni afv etish to'g'risidagi farmonning imzolanishi bayramning insonparvarlik mazmunini yanada teran ifoda etdi.

Farmonga muvofiq, 604 nafar shaxs jazonan to'liq ozod etiladi, 115 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi. 52 nafar shaxsga tayinlangan jazo yengilrogi bilan almashtirilib, 81 nafar mahkumning jazo muddati qisqartiriladi. Afv etilganlar orasida 375 nafar yosh, 49 nafar ayol, 60 yoshdan oshgan 37 nafar erkak, 7 nafar chet el fuqarosi hamda taqirlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan 63 nafar shaxs bor. Bu raqamlarning har biri ortida bir inson taqdiri, uni kutayotgan oila, farzand, ota-ona va yaqinlar bor. Demak, mazkur farmon minglab oilalarga yangi ezuq niyatlarga yo'g'rilgan umid va xotirjamlikni qaytaradi.



KO'P YILLIK MEHNAT E'TIROFI



Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan, o'zining ko'p yillik fidokorona mehnati, yuksak kasbiy mahorati va ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan bir guruh yurtdoshlarimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq ta'sis etilgan “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

E'tibor

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan esdalik nishonlarini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o'z egalariga tantanali vaziyatda topshirdi. Ular orasida senatorlar, Markaziy saylov komissiyasi Raisi, Senat devoni, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-

quvvatlash jamoat fondi xodimlari hamda Yoshlar parlamenti a'zolari bor.

Tadbirda so'zga chiqqanlar davlatimiz tomonidan bildirilgan yuksak ishonch uchun minnatdori izhor etib, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yo'lida bundan buyon ham sidqidildan xizmat qilishlarini ta'kidladi.

“Xalq so'zi”.

QARDOSHLIK VA O'ZARO HURMATGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

Turkiya Respublikasining Hatay viloyati hokimi Mustafa Masatli boshchiligidagi delegatsiya a'zolari Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga tashrif buyurdi.

Uchrashuv

Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Turkiya tomoniga Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar va ularning natijalari, Qonunchilik palatasining faoliyati haqida batafsil ma'lumot berdi.

O'z navbatida, M. Masatli samimiy qabul uchun minnatdori bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida oxirgi o'n yilda O'zbekiston tez sur'atlarda rivojlanayotgani, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora ortib borayotganini e'tirof etdi.

Mehmon Turkiyaning Hatay viloyatida ro'y bergan zilzila oqibatlarini yumshatish va bartaraf qilishda O'zbekiston birinчилardan bo'lib yordam ko'pini



cho'zganini hamda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi va topshirig'iga ko'ra, Arsuz tumanida 306 xonadondan iborat 24 ta qo'p qavatli uy-joy qurib berilganini ikki xalq o'rtasidagi mustahkam do'stlik va qardoshlikning yorqin ifodasi sifatida yuksak baholadi.



Fakt va raqamlar

Yangi Toshkentda Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining yangi kampusi qurilishi 2 bosqichda amalga oshirilmoqda.

Kampus 40 gektar maydonda barpo etilyapti.

Bu yerda jami 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan o'quv binolari va 5 ming o'rinli talabalar turarjoylarini tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Birinchi bosqich doirasida 12 ming o'rinli 5 qavatli o'quv binosi va zamonaviy laboratoriya majmuasi qurildi.

Nizomiy Ganjaviy merosiga bag'ishlangan muzey ekspozitsiyasida ushbu buyuk ozarbayjon shoirining hayoti va ijodi, uning boy ma'naviy merosi, shuningdek, O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik madaniy hamda adabiy aloqalar aks ettirilgan.



Samarqand 2001 – 2003:

MUSTAQILLIKKA ISHONCH UYGʻOTGAN YILLAR

Istiqlolimizning 35 yoshi arafasidagi oʻylar

◀1 Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati ravnaqi yoʻlida barchaning boshini birlashtirdi. Bir maqsad atrofida jamladi. Yoshi ulugʻ insonlar maslahatiga amal qilindi. Buning natijasida ishlar yurishgandan yurishdi. Muqaddas qadamlarlar, aziz avliyolar qabr-maqbaralari taʼmirlandi, obodonlashtirildi. Hali odamlar faqat roʻzgʻor tashvishlari bilan band boʻlgan bir davrda misli koʻrilmagan yutuqlarga erishildi. Mehnat faxriylari, bemorlar, nogironligi boʻlgan insonlar hollidan xabar olish tizimi ishga tushirildi. Mustaqillik eʼlon qilingandan keyingi oʻtgan oʻn yil ichida birinchi marta samarqandliklarning koʻngli xotirjam boʻldi. Yuziga tabassum yugurdi. Roʻzgʻorlariga qut-baraka indi. Dehqon, ishchi-xizmatchining qaddi koʻtarildi. Oʻshanda bilganman, hammasi rahbarga bogʻliqligini, shaxslar barchasini oʻzgartira olishini...

Samarqandliklar oʻsha kunlarni ham, Shavkat Mirziyoyevning mehr-eʼtiborini ham hech qachon unutmaydi. Tarixda birinchi marta viloyat rahbari maktablarga, oliy oʻquv yurtlariga, shifoxonalarga shaxsan bordi. Ha, tashrif buyurgani yoʻq. Haqiqatni oʻz koʻzi bilan koʻrish, vaziyatni oʻzgartirish uchun bordi. Shavkat Mirziyoyev insonlar hayoti, taqdiri, salomatligi, oʻqishidagi muhim masalani hech kinga ishonmasdi. Oʻzi borib koʻrib, xulosa chiqarardi, qaror qabul qilardi. Nazarimda, Samarqand viloyatiga rahbar boʻlganlarning hech qaysi biri hududni Shavkat Mirziyoyevday yaxshi bilmasa kerak. U bormagan biron-bir qishloq, biron-bir mahalla qolmagan. Shavkat Mirziyoyev eng ogʻir hududlarni yaxshi bilar, birinchi eʼtiborni oʻsha manzillarga qaratardi. U Qoʻshrabot yoki Urgut boʻladimi, Bulungʻur yoki Paxtachimi, Nurobodmi – hammasi haqida batafsil maʼlumotga ega edi. Shavkat Mirziyoyevning mashaqqatli mehnatlari evaziga 10-yil deganda odamlarning koʻzlarida umid uchunlari paydo boʻldi. Ishonch tugʻildi. Odamlar rahbarning shaxsi, salohiyati, nimalarga qodirligini oʻz koʻzlari bilan koʻrdi.

Ruhii kasalliklar shifoxonasiga, Mehribonlik yoki Saxovat uylariga borgan rahbarni eshitganmisiz? Men koʻrganman. Shavkat Mirziyoyev bu dargohlardagi ayanchli ahvolni shaxsan oʻzi bartaraf etgan. Ogʻir vaziyatdagi insonlarga qoʻl uzatgan. Samarqanddagi manaman degan vallamatlar ham birinchi rahbarning ish uslubiga tan berishgan, hisoblashishgan.

Samarqand viloyati shifoxonalari hech qanday qogʻozbozliklarsiz taʼmirlanib, 10-yil deganda birinchi marta tibbiy jihozlar, dori-darmonlar bilan taʼminlangan. Viloyatdagi qator binolar shifoxonalar tasarrufiga oʻtkazilgan.

Hamza HAMROYEV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-ichki kasalliklar kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent:
– 2003-yilda men Kattaqoʻrgʻon tuman markaziy shifoxonasida davolash ishlari boʻyicha bosh vrach oʻrinbosari lavozimida ishlardim. Kattaqoʻrgʻonga Shavkat Mirziyoyev kelganligi haqidagi xabarni eshitdim. Bosh vrach mehnat taʼtilida boʻlganligi sababli shifoxonaga kelgan viloyat rahbarini men kutib oldim. Salkam yarim asrlk mehnat faoliyatim davomida borgan joyida birinchi

boʻlib maktab bilan shifoxonani koʻrgan boshqa rahbarni bilmayman. Muloqot davomida men u kishiga tuman markaziy shifoxonasining binosi qurilishi 20-yildan beri toʻxtab turganligini aytdim. Viloyat hokimi oʻsha joyning oʻzida muammoning yechimini topdi. Bugungi Kattaqoʻrgʻon tumani markaziy shifoxonasi binosi shu taqlid barpo etilgan edi. Ushbu uchrashuvdan keyin Shavkat Mirziyoyev menga ishonch bildirib, bosh vrachlik lavozimiga tayinladi. Shu oʻrinda yana bir haqiqatni aytib oʻtmoqchiman. 2001-yilgacha uch yuz mingga yaqin aholi yashaydigan Kattaqoʻrgʻon tumanida bitta eski EKG apparati bor edi. Bir kun ishlasa, uch kun ishlamasdi. Shavkat Mirziyoyev shifoxonamizning har bir boʻlimiga bittadan EKG apparati olib berdi. Hatto 20 ta qishloq vrachlik punkti ham EKG bilan taʼminlandi. Shifxonada birgina narkoz apparati boʻlib, u ham allaqachon ishlash muddatini oʻtab boʻlgan edi. U yangisiga almashirildi. Tumanidagi qator binolar sogʻliqni saqlash boʻlimiga olib berildi. Tibbiyotdagi islohotlar ham birinchi Samarqand viloyatidan boshlanganligini alohida taʼkidlashni istayman...

Maktablar oʻsha davrning eng ogʻriqli nuqtalari boʻlgan. 1991-yildan boshlab maktab taʼmiriga davlat tomonidan hech qanday mablagʻ ajratilmagan. Ota-onalar esa oʻzining roʻzgʻoridan ortmasdi. Maktablar eng qarovsiz, keraksiz binolarga aylanib borardi.

Lyudmila SHULGA, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan xalq taʼlimi xodimi, “Doʻstlik” ordeni sohibi:
– Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga rahbarlik qilganida men Payariq tumanidagi 6-maktab direktori lavozimida ishlaganman. Men 60-yillik oʻqituvchilik faoliyatim davomida taʼlim-tarbiya sohasiga Shavkat Mirziyoyev darajasida eʼtibor bergan rahbarni koʻrmaganman. Oʻshanda maktablarimiz xaroba ahvolga kelgandi. Oʻqituvchilar, muallimlik kasbini tashlab keta boshlagandi. Shavkat Mirziyoyev oʻshanda men ishlagan maktabga kelib, uzoq suhbatlashgan. Taʼlimdagi muammolar yechimi haqida fikrlarim bilan qiziqqan. Muammolarni chuqur oʻrgangan, tahlil qilgan. Maktabimiz 860 oʻringa moʻljallanganini, lekin 2000 dan ziyod oʻquvchilar tahsil olayotganini aytganimda, yonimizdagi harbiy komissariatni boshqa joyga koʻchirib, uning binosini maktabga olib bergandi. Homiylar topib, qoʻshimcha bino taʼmirlangandi. Maktabga, muallimga eʼtibor, gʻamxoʻrlik Samarqanddan boshlangan edi, deyshiga toʻla asoslarim bor...

Maktablarning tomlari tamom boʻlgan, yogʻingarchilik paytida tomchi oʻtishi odatiy holga aylangandi. Oʻsha kezlarda Shavkat Mirziyoyevning maʼnaviy jasorati tufayli viloyatdagi mingga yaqin maktablarning tomi qaytdan yopildi. Tarixda birinchi marta maktablarga yangi mebellar, kompyuter texnologiyalari kirib bordi. Eng muhimi, buning uchun zarur mablagʻ topildi. Bu esa oson emasdi. Nazarimda, Shavkat Mirziyoyev uchun eng yaqin insonlar oʻqituvchi, shifokor, olimlar boʻlgan. Oʻshanda men u kishining maktab

oʻquvchilari, talabalar, shifokorlarni paxta qulligidan qutqazish kerakligi haqidagi gaplarini eshitib, toʻgʻrisi, ishonmaganman. Paxta qulligi zulmidan xalqimiz hech qachon qutulmaydi, deb oʻylardim. Ishonaverim, u davrlarda bu gapni aytish u yoqda tursin, eshitishga qoʻrqardi odam.

Viloyat rahbarining oliy oʻquv yurtiga kelishi, olimlar bilan muloqot qilishi, maslahatlashishi, fikrlashishini ham Shavkat Mirziyoyev timsolida birinchi marta koʻrganman. Rahbar sifatida ilm-fan namoyandalaridan taklif va mulohazalar soʻrardi. Ularning fikrlarini inobatga olardi, qoʻllab-quvvatlardi. Samarqand davlat universitetiga eng koʻp kelgan viloyat hokimi ham, qoʻshimcha binolar ajratgan ham, professor-oʻqituvchilar bilan uchrashuvlar oʻtkazgan ham shu kishi.

Shavkat Mirziyoyev akademik Botirxon Valixoʻjayevni juda qadrlardi, hurmat qilardi. Domla universitet xiyobonidan Registondagi uyiga piyoda ketayotganida bir necha marta xizmat mashinasidan tushib olim bilan muloqot qilgan. Botirxon Valixoʻjayevga vafotidan keyin “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berilishi tashabbuskori boʻlgan.

Xadicha VAFOYEVA, mehnat faxriysi:
– Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatida ishlagan kezlarda turmush oʻrtogʻim, marhum Botirxon Valixoʻjayev bilan maslahatlashar, suhbat qurar, juda hurmat qilardi. Hayotlik vaqtlarida koʻp gʻamxoʻrliklar koʻrdik. Eng muhimi, bu eʼtibor domla dunyodan oʻtganidan keyin ham davom etmoqda. Maʼnaviy va moddiy koʻmak uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga cheksiz minnatdorlik bildiram. Bir voqeani eslagim keldi. 2017-yilda Samarqand shahrida tramvay yoʻlining ochilish tadbiriga meni ham taklif qilishdi. Marosimda Prezidentimiz bilan uchrashdim. Ushbu muloqot davomida ham mamlakatimiz rahbari domlani esladi. Oilamiz, yashash sharoitimiz bilan qiziqdi. Ertasi kuni viloyat mutasaddilari Prezident sovgʻasi boʻlgan mashinani menga topshirishdi. Mana, inson qadri, marhum ziyoli olimning oilasiga hurmat! Qolaversa, Prezidentimiz topshirigʻiga binoan viloyat va shahar hokimlari mening va farzandlarimning holidan domlo xabardor boʻlib turishadi, domlani xotirlab kelishadi. Buning uchun minnatdorman.

Viloyatning taniqli ziyolilari doim Shavkat Mirziyoyevning yonida boʻlgan. Ular qatorda Oʻzbekiston Qahramoni Hasan Normurodov, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sogʻliqni saqlash xodimi Nurmamat Abdullayev, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan xalq taʼlimi xodimi Ibrohim Raupov, taniqli sogʻliqni saqlash tashkilotchisi Shodiyor Begimqulovni eslab oʻtish mumkin.

Nargiza ABDULLAYEVA, Samarqand davlat tibbiyot universitetining davolash ishlari boʻyicha prorektori, 1-klinika bosh shifokori, tibbiyot fanlari doktori, professor:
– Otam Nurmamat Abdullayev 1993 – 2019-yillarda Samarqand davlat tibbiyot

universiteti 1-klinikasi bosh shifokori lavozimida faoliyat koʻrsatgan. Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatida rahbar boʻlgan yillarda otamni ham shifokor, ham olim, ham inson sifatida juda qadrlagan. Klinika moddiy-texnik bazasini yaxshilashga koʻmaklashgan. Otam “tibbiyot xodimiga bunday gʻamxoʻrlik qilgan rahbarni koʻrmaganman”, deb aytdi. U kishining mehridan quvvat olardi. Shavkat Mirziyoyev otamga toʻumrining oxirigacha ehtirom koʻrsatdi, eʼzozladi. Otamga “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sogʻliqni saqlash xodimi” unvoni va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni berilishida ham u kishining xizmati katta. Oʻzbekistonda bugun inson hayotligida ham, olamdan oʻtganidan soʻng ham eslanadi, xizmatlari eʼtirof etiladi...

Shavkat Mirziyoyev samarqandliklar qalbidamirʼifatparvar, maʼnaviyati yuksak rahbar sifatida namoyon boʻladi. U kishi viloyat hokimi boʻlib ishlagan davrda sobiq tuzum, mustaqillikning ilk davrida chala qolgan, qurilmay tashlab qoʻyilgan shifoxona, maktab, maktabgacha taʼlim muassasasi boʻladimi – barchasining qurilishi uchun mablagʻ topib, bitkazib, xalqimiz ixtiyoriga topshirgan edi. Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat taʼkidlaganidek: “Millat uchun nondon soʻng eng muhimi maktabdir”. Buyuk jadid maktabni behudaga nondon keyingi oʻringa qoʻymagan. 2001-yilgacha 3-4-yil Samarqand viloyatida qoʻrgʻochlik boʻlgan. Buning oqibatida chorasiz qolgan rahbarlar maktab oʻquvchilariga “gʻalla soligʻi” solishgandi. 1-sinfilar 1 kg., 2-sinfilar 2 kg. bugʻdoy olib kelib, davlatga topshirgan.

2001-yil seryogʻin boʻlib, dehqonchilik baroridan keldi. Shavkat Mirziyoyev tarixda birinchi marta rejadan tashqari boʻlgan gʻallani fermerning oʻziga berdi. Odamlarning uyi gʻallaga toʻldi. Insonlarda davlat va mustaqillikka ishonch paydo boʻldi. “Gʻalla soligʻi” degan muhdish amaliyot ham ututildi. Ayniqsa, qishloq aholisining hayot darajasi oshdi.

Samarqand viloyati paxta, gʻalla yetishtirish rejasini mamlakatda birinchilardan boʻlib uddaladi. Hech kinga sir emaski, oʻsha paytda iqtisodiyot aynan qishloq xoʻjaligiga bogʻlangandi. Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida, tuman markazlarida qator inshootlarni barpo etishga bosh-qosh boʻldi. Toʻgʻrisini aytganda, oʻshanda yangi binolar qurilishi odamlarning tushiga ham kirmasdi. Hamma qorin gʻamida edi. Faqat 2001-yilga kelibgina odamlarning qalbidaj shijoat uygʻondi.

Mustaqillikdaj muqaddas tuygʻuning taqdiri nomaʼlum boʻlib turgan yillarda kelajakka ishonch uygʻotgan shaxs, Yangi Oʻzbekiston meʼmori Shavkat Mirziyoyevga samarqandliklarning alohida mehrini, muhabbatini aytgim keladi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga 2-yilu 3 oy 6 kun rahbarlik qildi. Tarix uchun bu davr nihoyatda qisqa. Ishonchim komilki, mana shu vaqt ichida Shavkat Mirziyoyev oʻzi uchun 1 kun ham yashagani yoʻq. Bu inson oʻshanda butun hayotini, yoshlik, kuch-qudratini Samarqandga, samarqandliklarga baxshida etgan edi.

Rustam XOLMURODOV, Samarqand davlat universiteti rektori, Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati aʼzosi.

QARDOSHLIK VA OʻZARO HURMATGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

◀1 – Hatay zaminida bunyod etilgan goʻzal maskanlarga “Shavkat Mirziyoyev bulvari”, “Oʻzbekiston mahallasi”, “Toshkent” va “Samarqand” koʻchalari, “Oʻzbekiston qardoshlik parki” kabi nomlar berilishi va “Buxoro jome masjidi”ning faoliyat yuritishi xalqlarimiz oʻrtasidagi azaliy doʻstlik va qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, – dedi M. Masatli.

Uchrashuvda tomonlar Oʻzbekiston viloyatlari va Hatay oʻrtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyatlar borligini, Xorazm va Hatay oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali hududlar oʻrtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish mumkinligini qayd etdi. Mustahkam sheriklik aloqalarining rivojlanib borishi Oʻzbekiston va Turkiya xalqlarini yanada yaqinlashtirishga xizmat qilishi urgʻulandi.

Uchrashuv ochiq va doʻstona ruhda oʻtdi.
“Xalq soʻzi”.

INSONPARVARLIK VA QONUN USTUVORLIGI UYGʻUNLIGI

◀1 Qonunchilikka koʻra, afv muayyan mahkuma nisbatan individual tartibda qoʻllanadigan insonparvarlik aktidir. U mahkumni jazodan toʻliq yoki qisman ozod etishi, jazoni yengilroqʻ bilan almashtirishi yoki sudlanganlikni olib tashlashi mumkin. Ayni paytda afv shaxsni oqlamaydi va jinoyat sodir etilgani faktini bekor qilmaydi. Bu jihat nihoyatda muhim: davlat qonun ustuvorligidan chekinmaydi, biroq oʻz qilishini anqlagan va hayotini oʻzgartirishga tayyor insonga ishonch eshigini ochadi.

Soʻnggi yillarda afv etish amaliyoti davlat siyosatining izchil insonparvar yoʻnalishiga aylandi. 2017-yilda mamlakatimiz tarixida ilk bor 2 700 nafar mahkum afv etilgani bu borada mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. 2016 – 2021-yillarda afv bilan bogʻliq 17 ta farmon qabul qilingan. Ushbu farmonlar asosida kchirilganlarning 2 647 nafari jazoni iro etish muassasalaridan ozod qilingan. Keyingi yillarda ham bu ezu amaliyot muhim bayramlar va qutlugʻ sanalar arafasida davom ettirildi.

Albatta, bu jarayonning ahamiyatini faqat yillar kesimidagi raqamlar bilan baholab boʻlmaydi. Muhimi, har bir qaror zamirida insonni eshitish, uning xatosidan chiqargan xulosasini baholash va jamiyatga qaytish imkoniyatini aniq mezonlar asosida koʻrib chiqish amaliyoti qaror topmoqda. Bu esa Yangi Oʻzbekistonda “inson – jamiyat – davlat” tamoyili sud-huquq sohasida ham amaliy mazmun kasb etayotganini koʻrsatadi. Ayni paytda afv qilishda individual yondashuvning ustuvorligi jamoat xavfsizligi va qonuniylk manfaatlari ishonchli himoya qilinishi taʼminlaydi. Mahkumning qilishidan pushaymonligi, xulq-atvori, tuzalish yoʻliga oʻtgani, oilaviy va ijtimoiy holati kabi omillarni puxta oʻrganish qarorning ham insonparvar, ham asosli boʻlishiga xizmat qiladi.

Afv bilan insonning yangi hayoti boshlanadi, ammo davlat va jamiyatning vazifasi shu yerda tugamaydi. Ozodlikka chiqqan shaxsni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ish bilan taʼminlash, kasb oʻrganishiga koʻmaklashish, zarur tibbiy va psixologik yordam koʻrsatish, oilaviy munosabatlarni tiklash farmonning insonparvarlik samarasini belgilaydigan asosiy shartlardir.

Chunki jamiyatga qaytgan insonni befarqlik, ishsizlik yoki turli toʻsiqlar qarshilasa, berilgan imkoniyatning taʼsiri susayadi. Aksincha, mahalla, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari hamijihat ishlasa, kechagi mahkum bugun oilasiga tayanch, halol mehnat qiladigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshadigan fuqaroga aylanishi mumkin. Mustaqillikning oʻttiz besh yillik yoʻli bizga bir haqiqatni yanada teran anglatdi: taraqqiyotning eng ishonchli oʻlchovi inson taqdiridagi ijobiy oʻzgarishdir. Qonunlar, institutlar va islohotlar insonga xizmat qilgandagina oʻzining toʻliq maʼnosini topadi. Navbatdagi afv farmoni ham ana shu ezuq siyosatning amaliy ifodasidir. Unda davlatning adolatl qatʼiyati ham, xalqimizga xos kechirimlilik va bagʻrikenglik ham mujassam. Eng muhimi, bu qaror adashgan inson uchun chin dildan pushaymonlik va tuzalishga intilish hayotida yangi sahifa ochishi mumkinligini koʻrsatmoqda.

Endi afv etilgan har bir shaxsning vazifasi – berilgan imkoniyatni qadrlash, yaqinlari va Vatan oldidagi masʼuliyatini his etib yashash boʻlsa, davlat va jamiyatning burchi ularni chetga surmasdan, sogʻlom hayotga qaytishiga koʻmaklashishdan iborat boʻlmogʻi lozim. Ana shunda insonparvarlik adolatl zailflashtirmaydi, aksincha, uning kuchini va hayotiy taʼsirini yanada oshiradi.

Jahongir SHIRINOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi raisi.

Xalqaro anjuman

ALOQALARNI FAOLLASHTIRISHGA QARATILGAN SAʼY-HARAKATLAR

24 – 26-avgust kunlari Oliy Majlis Senati Raising birinchi oʻrinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi Oʻzbekiston delegatsiyasi Pekin shahrida boʻlib oʻtgan “Umumiy kelajak, Osiyoning yangi sahifasi: Osiyo mamlakatlari yagona taqdir hamjamiyatini barpo etish” mavzuidagi xalqaro konferensiyada qatnashdi.

Unda koʻplab mamlakatlarning siyosat va jamoat arboblari, XXRning vazirlik va idoralari rahbarlari, diplomatik korpus vakillaridan iborat 200 dan ortiq kishilar ishtirok etdi.

Konferensiyaning ochilish marosimida Sodiq Safoyev Oʻzbekistonda Yangi Oʻzbekistonni barpo qilish doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlari, maqsad va vazifalari haqida soʻzladi. Xususan, Markaziy Osiyoda soʻnggi yillarda shakllangan yaqin qoʻshnichilik va hamkorlik muhiti alohida eʼtirof etildi. Keng Osiyo mintaqasida tinchlik va doʻstlikni mustahkamlashga qaratilgan takliflar ilgari surildi. Shuningdek, anjuman doirasida qator xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar oʻtkazildi. Jumladan, Butunxitoy Xalq vakillari kengashi raisi oʻrinbosari Van Dunmin bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvda parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, ikki mamlakat rahbarlari belgilab

“Xalq soʻzi”.

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH – ASOSIY MAQSAD

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi majlisida aholi salomatligi bilan bogʻliq qonunlar muhokama qilindi.

Senat qoʻmitasida

“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni koʻrsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish toʻgʻrisida”gi qonun dastlabki tarzda koʻrib chiqildi. Mazkur qonun “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”, “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati toʻgʻrisida” va “Taʼlim toʻgʻrisida”gi

xizmat koʻrsatishni taʼminlash zarurligi alohida taʼkidlandi.

Ushbu qonunning 12-moddasida manfaatdor shaxslarga majburiyatlar orqali qinchilik tugʻdirish, faqat rasmiy qoidalar va talablarga rioya etilishi maqsadidagina ularga huquqlar berishni rad qilish yoki ularning huquqlarini boshqacha tarzda cheklash maʼmuriy organlarga taqqlanishi nazarda tutilmoqda.

Shundan soʻng “Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun muhokamaga tortildi.

Senatorlar qonun Senatning 17-yalpi majlisida rad qilinib, Kelishuv

TALABALAR TURARJOYLARI NAVBATDAGI OʻQUV YILIGA TAYYORMI?

Yangi 2026/2027 oʻquv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Mazkur jarayon barcha taʼlim tashkilotlaridan katta tayyorgarlik va masʼuliyatni talab qiladi. Ayniqsa, oliy oʻquv yurtlari talabalarini turarjoy bilan taʼminlash muhim vazifalardan.

Oʻrganish

Shu maqsadda Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi Odiljon Mamatkarimov hamda senator Gulnora Maʼrufova Oʻzbekiston Milliy universitetida boʻlib, yangi oʻquv yiliga tayyorgarlik jarayoni hamda talabalar yashashi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Oʻrganish davomida talabalar yotoqxonalaridagi mavjud infratuzilma, yashash xonalari, maishiy

va sanitariya sharoitlari, xavfsizlik masalalari, shuningdek, talabalarni turarjoy bilan taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar koʻzdan kechirildi.

Qayd etilganidek, universitetda jami 12 ta talabalar turarjoyi mavjud boʻlib, ulardagi oʻrinlar soni 6 466 tani tashkil etadi. 2025-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 1 000 oʻrinli yangi talabalar turarjoyi foydalanishga topshirilgan, shuningdek, 240 oʻrinli talabalar yotoqxonasi qayta taʼmirlangan. Bugungi kunda talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasi 30 – 35 foizni tashkil etmoqda.

Hozirgi kunga qadar talabalar turarjoylariga joylashish uchun 5 157 ta ariza kelib tushgan. Talabalarni belgilangan mezonlar asosida joylashtirish hamda ushbu jarayonda ularga amaly koʻmak berish maqsadida universitet hududining ikki nuqtasida yordam koʻrsatish markazlari – infokiosklar tashkil etilgan. Ularga 84 nafar tyutor, 13 nafar dekan oʻrinbosari hamda 255 nafar volontyor talaba masʼul qilingan.

Shuningdek, talabalarni muqobil turarjoy bilan taʼminlash maqsadida universitet masʼullari tomonidan 362 ta ijara xonadoni belgilangan va ularda 8 430 nafar talabani joylashtirish imkoniyati mavjud.

Oʻrganish davomida universitetda tahsil olayotgan 3 620 nafar xorijiy talabani turarjoy bilan taʼminlash masalasiga ham eʼtibor qaratildi.

Xorijiy va mahalliy talabalarning turarjoyga ehtiyojini qoplash uchun universitetga yaqin oliy taʼlim tashkilotlaridagi boʻsh oʻrinlardan foydalanish, shuningdek, xostellar va ijara xonadonlar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Senatorlar oʻrganish jarayonida aniqlagan masalalarga eʼtibor qaratib, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, mavjud kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish, turarjoylarga joylashtirish jarayonini bahsiz va tizimli tashkil qilish, talabalarning xavfsiz yashashi uchun zarur sharoitlarni taʼminlash boʻyicha tavsiyalar berdi.

“Xalq soʻzi”.

Soʻnggi oʻn yilda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlariga 160 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, umumiy qiymati 76 mlrd. dollarlik 2 163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirildi.

INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA PARLAMENTNING OʻRNI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qoʻmitasi mustaqillik yillarida mamlakatni innovatsion rivojlantirish, sohalar va tarmoqlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasidagi islohotlarda parlamentning ishtiroki masalalariga bagʻishlangan kengaytirilgan yigʻilish oʻtkazdi.

Unda mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan mamlakatni innovatsion rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va mazkur sohalarining huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar sarhisob qilindi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarini toʻliq qamrab oldi. Shuningdek, zamonaviy normativ-huquqiy baza shakllantirildi.

Ushbu jarayonlarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasining mazkur sohadagi faoliyati, asosan, qonunchilik asoslarini shakllantirish, soʻnariy institutsional tuzilmalarni rivojlantirish hamda qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va strategiyalar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish kabi uchta asosiy yoʻnalishda namoyon boʻlmoqda.

Jumladan, Oʻzbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan taʼminlash maqsadida “Elektron hukumat toʻgʻrisida”, “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”, “Elektron raqamli imzo toʻgʻrisida”, “Pochta aloqasi toʻgʻrisida”, yangi tahrirdagi “Telekommunikatsiyalar toʻgʻrisida”, “Kosmik faoliyat toʻgʻrisida”gi qonunlar qabul qilindi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida “Toʻlovlar va toʻlov tizimlari toʻgʻrisida”gi hamda “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi qonunlarning yangi tahrirlari ham muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Shuningdek, innovatsion rivojlanish boʻyicha ham 10 ga yaqin qonunlar qabul qilingan. Jumladan, “Innovatsion faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonun innovatsion jarayonlarning huquqiy asoslarini belgilab, yangi gʻoyalarni, kashfiyotlarni va ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda amaliyotga joriy etish uchun huquqiy mexanizmlarni mustahkamladi.

Parlament nafaqat qonunlar ijodkori, balki ularning ijrosini taʼminlovchi muhim nazorat organi hisoblanadi. Xususan, “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, taʼlim, tibbiyot sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanish, BMning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish masalalarining ijrosi yuzasidan ijro hokimiyati vakillari ishtirokida “hukumat soati”, parlament eshituvlari oʻtkazilib, parlament soʻrovlari yuborilmoqda.

Muhokama davomida innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya yoʻnalishida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, kelgusida hal etilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalarga ham eʼtibor qaratildi. Xususan, sunʼiy intellekt texnologiyalarini qoʻllash boʻyicha yaxlit qonun qabul qilish, kiberxavfsizlik va shaxsga doir maʼlumotlar muhofazasini yanada kuchaytirish hamda raqamli xizmatlar sifatini oshirish boʻyicha huquqiy asoslarni izchil takomillashtirish, raqamlashtirishga yoʻnaltirilgan byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanish ustidan parlament nazoratini kuchaytirish zarurligi taʼkidlandi.

Tadbirida mavzuga oid dolzarb masalalar ham muhokama qilinib, ular yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi bilan hamkorlikda “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi Qonun ijrosi holatini nazorat-tahlil tartibida Qoraqalpogʻiston Respublikasi misolida oʻrganish yakunlariga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazdi.

OʻSIMLIK DUNYOSI MUHOFAZASI — USTUVOR VAZIFA

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlikni taʼminlash, ekologik tizimlar va tabiiy majmualarni asrab-avaylashga alohida eʼtibor qaratilib, hududlarni koʻkalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Atrof-muhit, ayniqsa, oʻsimlik dunyosini asrash, tiklash va undan oqilona foydalanishning huquqiy asoslari takomillashtirilib, “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shuningdek, sohada qonun talablarini bugunlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Deputatlar oʻrganishlari davomida Qoraqalpogʻiston Respublikasida qonun ijrosini taʼminlash boʻyicha qator ishlar amalga oshirilgani aniqlandi. Jumladan, 34 turdagi oʻsimlik boʻyicha davlat kadastr maʼlumotlari shakllantirildi. 2024 – 2026-yillar davomida hududda 9 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan 2 784,75 gektar qizilmiya plantatsiyalari tashkil etilgan.

Hududda umumiy maydoni 3 707 832,95 gektar boʻlgan 7 ta muhofaza etiladigan tabiiy hudud mavjud boʻlib, ularda oʻtkazilgan oʻrganishlar natijasida 962 turdagi oʻsimlik aniqlangan.

Yovvoyi holda oʻsuvchi oʻsimliklarning dorivor xomashyosini

yigʻish va tayyorlash uchun oʻsimlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirilib, tasdiqlangan kvotalar doirasida belgilangan tartibda berib kelingan.

Orol dengizining qurib qolgan tubi va boshqa choʻl hududlarida esa himoya oʻrmonzorlarini barpo etish, choʻl ekotizimlarini tiklash hamda oʻsimlik dunyosining tabiiy ravishda takror koʻpayishi va tiklanishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan biotexnik tadbirlar oʻtkazilgan.

Daraxt va butalarni kesishga oid murojaatlarni Davlat xizmatlari markazining interaktiv portali orqali qabul qilish va ularni joyiga chiqqan holda oʻrganish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilgan.

Muhokama davomida oʻsimliklar haqidagi kadastr maʼlumotlarini muntazam yangilab borish, ularni elektron shaklda yuritish va monitoring tizimi bilan bogʻlash zarurligi taʼkidlandi. Shuningdek, dorivor va iqtisodiy ahamiyatga ega oʻsimliklar, jumladan, qizilmiya zaxiralarni muhofaza qilish va daraxtlarni noqonuniy kesishning oldini olish boʻyicha nazoratni kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Yigʻilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

JAHON MEDIASI NIGOHI OʻZBEKISTONGA QARATILDI

Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida Toshkent va Samarqand shaharlarida oʻtkazilgan “Islom sivilizatsiyasi: yangi nigoh – yangi kashfiyotlar” xalqaro mediaforumi Vatanimizni yana bir bor jahon axborot maydonining diqqat markaziga olib chiqdi.

Forum

Dunyoning oʻnlab mamlakatlaridan kelgan yetakchi OAV rahbarlari, jurnalistlar, hujjatli kino ijodkorlari, olimlar, noshirlar va raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassislarini bir maydonga jamlagan forum tarixiy merosni zamonaviy mediavositalar orqali dunyoga yangicha talqinda yetkazish borasida muhim muloqot maydoni boʻldi.

Anjuman doirasida oʻtkazilgan yalpi majlislar, taqdimotlar, ijodiy uchrashuvlar va muhokamarlar Oʻzbekistonning boy ilmiy-maʼrifiy merosi, buyuk allomalarning qoldirgan bebaho xazina hamda mamlakatimizda bu merosni asrab-avaylash, xalqaro miqyosda targʻib etishga qaratilayotgan eʼtiborni keng jamoatchilikka namoyon qildi.

27-avgust kuni anjuman ishtirokchilari

Klaus SHTRUNS, “Euronews” bosh ijrochi direktori va tahririyat direktori:



– Ushbu xalqaro mediaforumida ishtirok etish men uchun katta sharaf. Koʻplab yangi taassurot va bilimlarga ega boʻldim. Anjumanning

eng muhim jihati turli mamlakatlardan kelgan jurnalistlar, media vakillari va ekspertlarni bir maydonda jamlab, tarix, madaniyat va zamonaviy taraqqiyot haqida ochiq muloqot uchun imkoniyat yaratganidir.

Bunday forumni muntazam oʻtkazib,

Samarqandga tashrif buyurdi. Dastlab ular buyuk muhaddis Imom Buxoriy majmuasi va ilmiy-maʼrifiy maskanlar bilan tanishdi. Mehmonlarga ulugʻ ajdodimizning hayoti va ilmiy merosi, uning islom olamidagi begiyos oʻrni, shuningdek, majmuada amalga oshirilgan keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari haqida maʼlumot berildi. Shundan soʻng ishtirokchilar Registron maydoni, Amir Temur maqbarasi, Mirzo Ulugʻbek rasadxonasi, Shohi Zinda majmuasi va boshqa diqqatga sazovor maskanlar bilan tanishdi. Bu tashrif xorijiy media vakillariga Oʻzbekistonning boy tarixi va madaniy merosini bevosita his etish, uni oʻz auditoriyasiga yangi nigoh bilan taqdim qilish imkonini berdi.

Quyida xalqaro mediaforum ishtirokchilarining taassurot va fikrlarini eʼtiboringizga havola etamiz.

uni yangi mavzular va ishtirokchilar bilan boyitib borish muhim. Shu orqali islom sivilizatsiyasining boy tarixi, uning bugungi ahamiyati va kelajakdagi oʻrni xalqaro auditoriyaga yanada keng va zamonaviy shaklda yetkazilishi mumkin.

Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi menda katta taassurot qoldirdi. Bu nafaqat oʻziga xos meʼmoriy inshoot, balki mamlakatning boy ilmiy, madaniy va sivilizatsion merosini namoyon etadigan muhim maʼrifiy makon. Markaz oʻtmishi bugungi taraqqiyot va kelajak haqidagi qarashlar bilan bogʻlash imkonini beradi.

Biz Oʻzbekistonning boy tarixiy merosi, bugungi rivojlanishi va kelajakka intilishini bir butun hikoya sifatida dunyoga koʻrsata olamiz.



Imron AHMAD, “CNN”ning Markaziy Osiyo va Afrika boʻyicha mintaqaviy vakili:

– Mediaforum Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar haqida dunyo jamoatchiligiga maʼlumot yetkazish uchun muhim platformaga aylandi. U mamlakatning boy merosi, tarixi, buyuk allomalari va zamonaviy taraqqiyotga qoʻshgan hisssasi bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Oʻzbekiston zaminida shakllangan, ammo dunyo ahli hali toʻliq bilmaydigan koʻplab buyuk gʻoya va kashfiyotlar bor. Xorazmiyning ilmiy merosi buning yorqin misoli. Bugungi raqamli texnologiyalar asosida turgan “algoritim” tushunchasi ham uning nomi bilan bogʻliq. Bunday forumlar

Ahmad Hilol BUSAIDIY, “Oman TV” telekanali yangiliklar dasturi boshlovchisi:



– Forumda ajoyib muhit hukmron boʻldi. Unda koʻplab taniqli va nufuzli telekanallar, media vakillari qatnashgani Oʻzbekiston haqidagi

axborotni dunyoga keng tarqatish uchun katta imkoniyat yaratdi.

Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi bizni maftun etdi. Bu yerda

ana shu merosni xalqaro auditoriyaga keng yetkazish uchun juda muhim.

Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va uzoqni koʻzlagan qarashlarisiz tasavvur etish qiyin. 2017-yilda ilgari surilgan bu gʻoya bugun mamlakatning tarixi, merosi va jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan hissasini dunyoga tanitadigan muhim maskanda oʻz ifodasini topdi. Bugungi qutblashib borayotgan dunyoda bunday tashabbuslar oʻzaro anglashuv va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ayniqsa qadrlidi.

ulkan tarix va boy bilim mujassam. Forum ana shu merosni, shuningdek, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar va yaratilayotgan imkoniyatlarni xalqaro jamoatchilikka keng namoyish qildi. Oʻzbekiston islom sivilizatsiyasini faqat yozma tarix sifatida emas, balki bugun ham insonlarga maʼrifat, nur va tinchlik ulashayotgan tirik meros oʻlaroq koʻrsatmoqda. Forumda koʻrganlarimdan soʻng mamlakat oʻz taraqqiyot yoʻlidan dadil borayotganiga va Markaziy Osiyo uchun muhim oʻrin tutayotganiga yana bir bor ishonch hosil qildim.

“Xalq soʻzi”.

BUNYODKORLIK VA YUKSALISH TIMSOLI

Bayramlar xalq hayotiga eng yorqin va unutilmas onlarni muhrlaydi. Ayniqsa, Vatan mustaqilligi sharafiga bagʻishlangan ayyomlar oʻtgan yoʻlga nazar tashlash, erishilgan yutuqlarni sarhisob qilish barobarida, ertangi kunga ishonch va yuksak maqsadlar bilan qadam qoʻyish uchun oʻziga xos fursatdir.

Fikr

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Prezidentimiz ishtirokida hududlarda yangi obyektlarni ishga tushirishga bagʻishlangan marosim ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodasiga aylandi. Qariyb 50 trillion soʻmlik 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyektlarining foydalanishiga topshirilishi yurtimizdagi keng koʻlamli bunyodkorlik va yangilanishlar koʻlamini yana bir bor namoyon etdi.

Ushbu raqamlar zamidra yurt iqtisodiyotining oʻsishi, yangi ish oʻrinlari, aholi farovonligi va hududlarning taraqqiyoti mujassam. Yangi quvvatlar mamlakatimizning sanoat salohiyatini yuksaltirish bilan birga, inson qadriini ulugʻlashga qaratilgan islohotlarning oqibatida samarasini ham yaqqol namoyon etmoqda.

Soʻnggi oʻn yil Oʻzbekiston taraqqiyoti tarixida tub burilishlar davri sifatida alohida oʻrin egallaydi. Inson qadriini yuksaltirish, aholi farovonligini



taʼminlash, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan islohotlar mamlakat hayotining barcha jabhasida sezilarli oʻzgarishlarga olib keldi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, soʻnggi oʻn yil mamlakatimiz tarixida yangi Uygʻonish davri – Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida muhrlandi.

Raqamlar ham bu jarayon koʻlamini yaqqol koʻrsatib turibdi. Oʻtgan davrda iqtisodiyot hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Tarmoqlarga 160 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi. Umumiy qiymati 76 mlrd. dollarlik 2 163 ta yirik sanoat loyihasi amalga oshirilib, qariyb 6 mln. nafar aholi doimiy ish oʻrniga ega boʻldi.

Eʼtiborlisi, bugun investitsiya oqimi bilan birga iqtisodiyotning mazmun-mohiyati ham oʻzgarib bormoqda. Ilgarigi xomashyo

yetkazib berishga asoslangan yondashuv oʻrnini chuqur qayta ishlay, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish va tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqish tamoyili egallamoqda. Yangi korxonalarning har biri yangi texnologiya, zamonaviy kasb va munosib daromadli mehnat imkoniyatlarini ham yuzaga keltirmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan loyihalarning koʻlami va tarmoqlar qamrovi nihoyatda keng.

Joriy yilning oʻzida 1,7 mlrd. dollarlik 56 ta yirik zamonaviy sanoat va servis obyekti ish boshlab, 8,8 mingta yuqori daromadli ish oʻrni yaratildi. Bundan tashqari, byudjet mablagʻlari hisobidan maktablar, bogʻchalar, shifoxonalar, avtomobil yoʻllari, ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini barpo etish, taʼmirlash va rekonstruksiya qilish boʻyicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

Yangi obyektlar energetika, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sanoati, metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari, togʻ-kon, toʻqimachilik va yengil sanoat kabi iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini qamrab olgan.

Masalan, Sirdaryo viloyatida 1 573 megavattli elektr energiyasi

ishlab chiqarish quvvati, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 200 megavattli shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli energiya saqlash tizimi ishga tushirilgani mamlakatda elektr energiyasiga oʻsib borayotgan talabni qondirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror elektr energiyasi bilan taʼminlashga xizmat qiladi.

Barpo etilayotgan zamonaviy maktab, bogʻcha, oliy taʼlim muassasasi, shifoxona va kutubxona ham jamiyatning ertangi kuniga kiritilayotgan eng muhim investitsiyadir. Yangi oʻquv yili arafasida ijtimoiy sohada 36 ta bolalar bogʻchasi, 43 ta maktab, 7 ta oliy taʼlim muassasasi va 3 ta shifoxona foydalanishga topshirilgani, avvalo, aholi uchun taʼlim va tibbiy xizmatlar qamrovi hamda sifatini oshirishga zamin yaratadi. Yangi Toshkent hududida jahon standartlari asosida 10 gektar maydonda barpo etilgan Yangi Oʻzbekiston universiteti, avvalo, zamonaviy bilim va texnologiyalarni puxta egallagan, xalqaro miqyosda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Zero, bu yerda 7 ming nafar talaba uchun taʼlim olish imkoniyati yaratilgan.

Eʼtiborlisi, universitetda nufuzli

Hilola YUSUPOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI OLIY TAʼLIMDAN KEYINGI OʻQUVGA – TAYANCH DOKTORANTURA VA DOKTORANTURAGA 2027-YIL UCHUN QABUL EʼLON QILADI.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 19-fevraldagi 70-son qaroriga muvofiq oliy taʼlimdan keyingi oʻquvga qabul 2026-yil 15-sentabrden 15-oktabrga qadar boʻlib oʻtadi.

Talabgorlar quyidagi ixtisosliklar boʻyicha hujjat topshirishlari mumkin:

– 07.00.09 – Davlat siyosati va boshqaruvi tarixi;
– 08.00.19 – Davlat boshqaruvining iqtisodiy asoslari;

– 12.00.17 – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari;
– 22.00.05 – Davlat siyosati va boshqaruvi sotsiologiyasi;
– 23.00.06 – Davlat siyosati va boshqaruvi asoslari.

Hujjatlar Yagona elektron tizim (<https://daraja.ilmiy.uz>) orqali onlayn topshiriladi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilarga ega boʻlgan talabgorlarning hujjatlari qabul qilinadi:
■ magistr darajasi, oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi diplom (mutaxassislik dasturlari boʻyicha);

■ dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi;
■ OAK tomonidan belgilangan ilmiy jurnallarda bosilgan 3 ta maqola hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar toʻplamlarida chop etilgan 3 ta tezis;
■ xorijiy til sertifikatini “V2” darajasi – milliy yoki xalqaro.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilarga ega boʻlgan talabgorlarning hujjatlari qabul qilinadi:

■ fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy daraja;

■ dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi;
■ OAK tomonidan belgilangan ilmiy jurnallarda bosilgan 5 ta maqola hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar toʻplamlarida chop etilgan 5 ta tezis;
■ xorijiy til sertifikatini “B2” darajasi – milliy yoki xalqaro.

Akademiyada tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilish boʻyicha tanlov har biri 100 balli baholash tizimiga asoslangan quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

■ birinchi bosqich – talabgorlar mutaxassislik fanlaridan imtihon (yozma, ogʻzaki, test) topshiradi;

■ ikkinchi bosqich – talabgorlar dissertatsiya rejasining mufassal loyihasini taqdimot qiladi. Qabul komissiyasi talabgorlarning dissertatsiya rejasining mufassal loyihasini 100 balli tizimda baholaydi.

Akademiyada tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilish boʻyicha tanlov oʻtkazish sanasi va boshqa maʼlumotlar <https://dsba.uz/uz/> saytiga joylashtiriladi.

Batafsil va qoʻshimcha maʼlumotlar uchun telefonlar: 71-239-12-98, 71-239-49-02.
Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov koʻchasi, 45-uy.

Endilikda “Vatan tayanchi” otryadining aʼzosisga, “Vatanparvarlar” hamda “Shijoat va gʻayrat” musobaqalarining respublika bosqichi gʻoliblariga oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish uchun tavsiyanomalar beriladi.

TARIXIY YO'L, BURCH VA MAS'ULIYAT

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi yurtimiz hayotidagi muhim siyosiy va tarixiy sana sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu, avvalo, bosib o'tilgan taraqqiyot yo'lini xolis baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniq belgilash hamda kelgusi rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari haqida teran fikr yuritish uchun yaxshi imkoniyatdir.

Yuksalish odimlari

O'ttiz besh yil – tarix nuqtayi nazaridan juda uzoq davr emas. Ammo shu qisqa vaqt ichida mamlakatimiz juda ko'p yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bugun Yangi O'zbekistonni dunyo taniyapti. Erishilgan muvaffaqiyatlar zaminida boshqa muhim soha va tarmoqlar rivoji bilan birga, ilm-fan hamda ta'lim-tarbiya yotadi.

Shu ma'noda, keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim hamda ilm-fan sohasiga e'tiborning kuchayishi taraqqiyotimizning asosiy tayanchi bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, ilmiy tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, yoshlarning xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni egallashi uchun imkoniyatlarni kengaytirish – bularning barchasi mamlakatning uzoq muddatli yuksalishi uchun xizmat qiladi.

Endigi masala ta'limga ko'proq yoshlarni jalb qilish bilan birga, ularga raqobatdosh bilim berish, ilm-fanni real iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'lash, universitetlarni bilim va innovatsiya

markazlariga aylantirishdan iborat bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasasi faqat diplom beradigan tashkilot emas. Zamonaviy universitet – ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, madaniyat va jamiyat taraqqiyoti kesishadigan intellektual makon. Farg'ona davlat universitetining ko'p yillik tarixi hamda ilmiy-pedagogik salohiyati bizga ana shu vazifalarni yanada yuqori darajada bajarish imkonini beradi. Bugun universitet oldida turgan asosiy vazifa – zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan va o'z sohasida yangi qiymat yaratga oladigan mutaxassislarni tayyorlash.

Buning uchun universitetda ta'lim sifati birinchi o'rinda turishi kerak. Jarayon zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishi, ilm-fan bilan ta'lim o'rntasidagi aloqa kuchaytirilishi, talabalarning tadqiqotchilik qobiliyati rivojlanirilishi, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Ayni paytda muassasaning jamiyatdagi o'rnini ham kengaytirish muhim. Universitet o'z hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ilmiy tahlil qiladigan, amaliy takliflar ishlab chiqadigan, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydigan va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadigan markaz bo'lishi lozim.

Shonli tarixdan yorqin kelajakka

Darhaqiqat, shonli 35 yillik yo'l bizga o'tgan davrni yakunlash uchun emas, yangi davrni mazmunan belgilash uchun berilgan tarixiy imkoniyatdir. Biz bugun o'tmishga boqib, nimalarga erishganimizni ko'ramiz. Ayni chog'da istiqboldagi vazifalarni ham aniq belgilashimiz kerak.

Kelgusi o'n yilliklarda O'zbekiston qanday davlatga aylanadi? Iqtisodiyoti qay darajada rivojlanadi? Qaysi universitetlar va ilmiy maktablar shakllanadi? Dunyoda raqobatlasha oladigan mutaxassislar salmog'i qancha bo'ladi? O'z texnologiyalarini yaratga oladigan korxonalar soni oshadimi? Yoshlar uchun qanday yangi imkoniyatlar ochiladi?

Bu savollarning javobi bugungi qarorlarimizda shakllanmoqda.

Shu ma'noda, mustaqillikning 35 yilligi – tarixiy natija bilan kelajak maqsadlari tutashadigan nuqta. O'z navbatida, keyingi o'n yilliklar esa bizdan davlat boshqaruvining yangi sifatinii, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli modellarini, ta'lim va ilm-fanning salmoqdor natijalarini talab qiladi.

Farg'ona davlat universiteti jamoasi uchun mustaqillikning 35 yilligi yana bir muhim ma'no kasb etadi. Biz universitetni mamlakat taraqqiyotining umumiy jarayonlaridan tashqari tasavvur qila olmaymiz. Yurt ravnagi qanday bo'lsa, universitet oldidagi vazifalar ham shunday o'zgaradi. Bugun oliygohda faqat yaxshi mutaxassis tayyorlashning o'zi yetarli emas. Biz yangi bilim yaratadigan, istiqbolli g'oyalarni ilgari suradigan, ilmiy va ijtimoiy muammolarga yechim taklif qiladigan, iqtisodiyot va jamiyatning real ehtiyojlariga javob beradigan intellektual muhitni shakllantirishimiz zarur.

Ta'lim muassasamiz o'zining ilmiy-pedagogik salohiyati, ko'p tarmoqli ta'lim yo'nalishlari va katta jamoasi bilan bu vazifalarni bajarish uchun zarur imkoniyatlarga ega. Endi asosiy masala – ulardan unumli foydalanib, yanada yuqori natijalarga erishish. Biz uchun universitet taraqqiyotining asosiy mezonlari aniq: ta'lim sifati, ilmiy natija, zamonaviy kadrlar tayyorlash, innovatsiya, xalqaro hamkorlik, talabalarining kasbiy va intellektual salohiyati hamda hudud taraqqiyotiga amaliy hissa. Bu mezonlar oliygohning nafaqat

bugungi, balki kelgusi o'n yilliklar strategiyasini ham belgilashi kerak.

Har qanday islohotning natijasi, alaloqibat, inson omiliga borib taqaladi. Davlat qanchalik yaxshi dasturlar qabul qilmasin, agar ularni amalga oshiradigan professional kadrlar bo'lmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shuning uchun keyingi taraqqiyot bosqichida professionalizm masalasiga yanada katta ahamiyat berishimiz kerak.

O'z sohasini chuqur biladigan mutaxassis, o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydigan rahbar, yangilikka ochiq olim, sifatlil ta'lim beradigan pedagog, zamonaviy texnologiyalarni egallagan muhandis va tashabbuskor tadbirkor – bularning barchasi mustaqil mamlakat taraqqiyotining real tayanchlari.

Taraqqiyot bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar tizimi

Zamonaviy vatanparvarlikning muhim ko'rinishlaridan biri ham ana shunda. O'z kasbini puxta egallash, yuqori natija uchun intilish, jamiyatga foyda keltiradigan ish qilish, bilim va tajribasini yurt taraqqiyotiga safarbar etish – mustaqillik qadriini amalda namoyon etishning eng ta'sirchan shakllari.

Kelgusi taraqqiyotning bir nechta asosiy yo'nalishlarini belgilash mumkin. Birinchidan, inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining markazida turishi kerak. Ikkinchidan, ta'lim va ilm-fanni iqtisodiy taraqqiyot

bilan yanada chuqur bog'lash zarur. Uchinchidan, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etishga e'tiborni kuchaytirish lozim. To'rtinchidan, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, xususiy tashabbus va tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlarni ta'minlash muhim. Beshinchidan, hududlarning mavjud intellektual va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Oltinchidan, universitetlarni mintaqaviy taraqqiyotning intellektual markazlariga aylantirish kerak. Yettinchidan, yoshlarning bilim, kasb va innovatsion faoliyat uchun imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur.

Mazkur vazifalarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki ularning barchasi muttasil rivojlanib borilsagina kutilgan natijaga erishamiz. Ya'ni taraqqiyot bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar tizimidir.

Bugun mustaqillikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri mamlakatning inson, bilim va texnologiyaga tayangan taraqqiyot modelini yanada kuchaytirishdir. Bizga kelgusi davrda katta maqsadlar, aniq strategiya va professional ijro kerak. Bizga bilim yoshlar, kuchli universitetlar, samarali ilm-fan, raqobatbardosh iqtisodiyot va o'z sohasida yuqori natija ko'rsata oladigan mutaxassislar zarur.

Eng muhimi, bizga o'z kelajagini o'zi belgilay oladigan, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yogga chiqaradigan va taraqqiyot uchun

mas'uliyatni his qiladigan jamiyat lozim.

Ta'kidlash joizki, bugun ta'lim fidoyilari oldida turgan vazifalar juda ulkan. Bular – mas'uliyatni his etgan holda, yangi avlodlar zimmasiga istiqloq ulug' ne'mat ekanini munosib tarzda yetkazish, ularga sifatlil ta'lim hamda keng imkoniyatlar berish, mamlakatimizning intellektual va iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishdan iborat.

O'zbekistonning kelgusi taraqqiyoti qanday bo'lishi bugungi qarorlarimizga bog'liq. Chunki bugungi ta'lim – ertangi kadr, bugungi ilm – ertangi texnologiya, investitsiya – iqtisodiy salohiyat, mas'uliyat esa kelgusi natija bilan bevosita bog'liq.

Mustaqillikning 35 yilligi ana shu haqiqatni yana bir bor anglash, kelajakka yanada katta ishonch bilan qarash va yangi taraqqiyot bosqichi uchun yangi maqsadlarni belgilashga da'vat etadi. Bu sana o'tmishga berilgan baho emas, kelajak uchun mas'uliyatni yana bir bor his qilish imkoniyati. Va biz bu mas'uliyatni qanchalik chuqur anglasak, mustaqillikning keyingi yillari shunchalik mazmunli, taraqqiyotimiz yanada samarali va kelajak avlodlar oldidagi burchimiz munosib ado etilgan bo'ladi.

Bahodirjon
SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti
rektori, pedagogika fanlari
doktori, professor.

REKLAMA

KO'P MILLATLI JAMOANI BIRLASHTIRGAN BAYRAM

Davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni nima haqiqiy sheriklikka aylantiradi? Investitsiyalar va ko'p kilometrli infratuzilmami yoki zamonaviy texnologiyalar hamda xalqaro tajriba?

Albatta, bularning barchasi muhim. Ammo raqamlar bilan o'lchanmaydigan yana bir narsa borki, bu – ishonch. Shunday ishonchki, unda til to'siq bo'lmaydi, hamkasbingizning quvonchi esa sizning ham bayramingizga aylanadi.

Bugun O'zbekiston va Xitoy munosabatlari taraqqiyotning yangi bosqichini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik kengayimoqda, energetika, qurilish, tog'-kon sanoati, logistika va ta'lim sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilayotir. Va har bir shunday loyiha ortida jamoalar – turli madaniyat, til va kasbiy tajribaga ega odamlar turibdi. Ular nafaqat birga ishlashni, balki bir-birini kasbiy tilda anglashni ham o'rganmoqda.

Ana shunday misollardan biri "Asia Trans Gas" O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasidir. 18-yildan ortiq vaqt davomida bu yerda ikki davlat mutaxassislari yonma-yon mehnat qilib, tajriba, texnologiya va natija uchun umumiy mas'uliyatni birlashtirib kelayotir.

Mazkur kompaniya O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasining energetika infratuzilmasini rivojlantirishda, sohani modernizatsiya qilishda qatnashib, mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shish bilan birga, bir necha yildan buyon xizmatlar sohasidagi yirik soliq to'lovchilar qatoridan o'rin olgapti.

Ta'kidlash joizki, "Asia Trans Gas"da O'zbekiston va Xitoyning muhim bayramlarini birgalikda nishonlash yaxshi an'anaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida korxonaning bosh ofisida o'tkazilgan "Mening ona yurtim" deb nomlangan tadbir ana shu do'stlikning amaliy ifodasidir. Nega aynan "Mening ona yurtim" deb nomlandi? Chunki ona Vatan har kim uchun tug'ilib o'sgan yurtidan boshlanadi.

Xodimlarni "Asia Trans Gas" MCHJ QK bosh direktori Lyu Chjiqvan va

bosh direktorning birinchi o'rinbosari Mirjalol Azizov tabrikлади. Rahbarlar O'zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini, qo'shma korxonaning mamlakat taraqqiyoti va yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qo'shgan hissasini alohida qayd etib, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining uzoq muddatli yo'nalishlari hamda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi mustahkam munosabatlarning ahamiyatini ta'kidladı.

Qo'shma korxonaning turli bo'linmalari vakillari o'zlari tug'ilib o'sgan hududlari haqida ijodiy taqdimotlar tayyorladi. Shu tariqa oddiy korporativ zal bir necha soatga mamlakat bo'ylab sayohat yo'nalishiga aylandi: Qoraqalpog'iston Respublikasi va qadimiy Xorazmdan Farg'ona vodiysi orqali Qashqadaryo va Surxondaryogacha.

Xodimlar quruq ma'lumotlar bilan cheklanib qolmadi. Ular buyuk ajdodlari, oilaviy an'analari, qadimiy shaharlar va hunarmandchilik, mahalliy lahjalar hamda urf-odatlar haqida samimiy so'zlab berishdi. O'zbekiston geografiyasini har bir hudud dasturxonini orqali ham his etish mumkin edi: qoraqalpog' bo'g'irsoralari, Xorazm nonlari va tuxumbarak, Qashqadaryoning tandir go'shti, Bo'qon holvasi, Quva anorlari va Xorazm gurvarklari ana shular jumlasidandir. Ektranda hududlar manzaralari almashinar, qiziqarli faktlar yangrar, viktorinalar o'tkazilardi. Ayniqsa, xitoylik hamkasblar ularda juda faol ishtirok etdi.

Tadbirning asosiy g'oyalaridan biri ham aynan shu edi: chet ellik



xodimlarga O'zbekiston haqida shunchaki so'zlab berish emas, balki ularga mamlakatni o'z hamkasblari ko'zi bilan ko'rish imkonini yaratish.

"Men O'zbekistonda uch yildan buyon yashab, ishlab kelmog'daman va Mustaqillik kunini hamkasblarim bilan uchinchi marta birga kutib olmoqdamiz. Bu yil mamlakat hududlari bilan ancha yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldim va ilk bor an'anaviy Xorazm taomi – tuxumbarakni tatib ko'rdim. Men O'zbekiston tarixi va madaniyatiga qiziqaman, shuning uchun viktorina davomida deyarli barcha savollarga to'g'ri javob bera

oldim. Fursatdan foydalanib, xitoylik hamkasblarim nomidan O'zbekiston xalqini Mustaqillikning 35 yilligi bilan tabriklayman", dedi korxona xodimi Gao Yaszyun.

Shu bilan birga, "Istiqlol" bolalar raqs ansamblining chiqishlari har bir hudud madaniyati va folklorining naqadar boy ekanini namoyon qildi. So'ng geografiya sahnadan dasturxonga ko'chdi. Bayram mintaqaviy palov festivali bilan davom etdi. Turli retseptlar, taomlar, an'analari va bitta umumiy dasturxon. Shu kuni xodimlar va mehmonlar an'anaviy Samarqand zig'ir oshi, Andijon devzira



palovi va Toshkent to'y oshidan tatib ko'rdi. Har bir ta'm o'ziga xos bo'lib, muayyan hudud va uning aholisiga xos betakrorlikni aks ettirardi.

"Asia Trans Gas" jamoasida yana bir an'ana ham borki, u tarjimaga muhtoj emas. Chunki futbolni tarjimonisiz ham tushunish mumkin.

Har yili Mustaqillik bayrami arafasida mintaqaviy stansiyalar va ma'muriy bo'linmalar xodimlari Buxoroda minifutbol musobaqasida uchrashadi. Navbatdagi musobaqalar 80 nafardan ortiq xodimlarni birlashtirdi. Ikki kun davomida jamoalar bosh sovrin uchun hayajonli, qizg'in, ammo do'stona ruhda kurash olib bordi. Maydonda ham ishda bo'lgani kabi o'zaro hamjihatlik, sherikni qo'llab-quvvatlash hamda bir butun bo'lib harakat qilish qobiliyati g'alaba qozondi. Ehtimol, bunday tadbirlarning asosiy ma'nosi ham aynan shundadir.

Aytish mumkinki, O'zbekiston va Xitoyni iqtisodiyot, energetika, infratuzilma hamda yirik strategik loyihalar bog'lab turadi. Ammo mamlakatlar o'rtasidagi eng mustahkam ko'priklar faqat po'lat

va betondan qurilmaydi. Xuddi ming yillar avval, Buyuk Ipak yo'li davrida karvonlar Xitoydan Buxoro va Samarqandga, u yerdan yana orqaga qaytar ekan, yo'l-yo'lakay moviy gumbazli hamda mahobatli minorali shaharlar haqida afsonalarni olib yurganidek, bugun ham bunday ko'priklar o'zaro ishonch, hurmat, hamjihatlikdagi mehnat, bir-birining madaniyatiga qiziqish hamda minglab oddiy insoniy aloqalar asosida qurilmoqda.

"Asia Trans Gas"da bu, ayniqsa, yaqqol seziladi. Xitoylik va o'zbekistonlik mutaxassislari birga ishlaydi, murakkab vazifalarni birgalikda hal qiladi, birga futbol o'ynaydi, hamkasblarining kichik Vatani bilan tanishadi hamda bir dasturxon atrofida jam bo'ladi. Zero, haqiqiy hamkorlik ikki tomon hujjat imzolagan paytda emas, balki "sherik" degan so'z asta-sekin "do'st" degan so'zga aylangan pallada boshlanadi. Barchamiz uchun qadrdon bo'lgan O'zbekiston, mustaqillik ayyomingi muborak!

"Asia Trans Gas".

Yangi o'quv yilidan Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarida birinchi smenadagi o'quv mashg'ulotlari soat 08:00 da boshlanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullig'a qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhishi S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.50 Topshirildi – 00.20 **1 2 3 4 5 6**